

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

---

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI**

**QOBULOVA MAXPUBAXON YAKIBOVNA**

**AGROKASTERLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR  
SALOHIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in  
Economic Sciences**

**Qobulova Maxpubaxon Yakibovna**

Agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	3
--	---

**Кабулова Махпубахон Якибовна**

Совершенствование механизмов управления кадровым потенциалом при развитии агрокластеров.....	29
---	----

**Qobulova Mahpubakhon Yakibovna**

Improvement of personnel capacity management mechanisms in the development of agroclusters. .....	57
--	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....	60
------------------------------	----

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

---

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI**

**QOBULOVA MAXPUBAXON YAKIBOVNA**

**AGROKASTERLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR  
SALOHIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Byulletenida B2024.1.PhD/Iqd.3902 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mirzayev Abdullajon Topilovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Qosimova Dilorom Sobirovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**Mirdjalilova Dildora Shuxratovna**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi**  
Toshkent Davlat Texnika Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil 5 soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51, email: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1833 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51, email: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 21 11 kuni tarqatildi.

(2024 yil 20 11 dagi 63 raqamli reestr bayonnomasi).



**G.Q. Abduraxmanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**O.Dj.Djurabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
asosidagi bir martalik ilmiy kengash  
kotibi, i.f.d. (DSc), professor

**Sh.A.Allayarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
asosidagi bir martalik ilmiy kengash  
qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi,  
i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Juhon iqtisodiyotida agroklasterlar faoliyatini rivojlantirish jarayonida kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etmoqda, chunki agrar salohiyatni samarali yuritish to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson kapitali sifat va salohiyatiga bog‘liq. Zamonaviy klasterlashuv tizimida mutaxassis kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini maqsadli rejallashtirish, shuningdek, ularning professional kompetentsiyalarini bozor talablari bilan muvofiqlashtirish orqali agroklasterlarda innovatsion g‘oyalarni joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va texnologik transformatsiyani ta’minlash mumkin. “Keyingi o‘n yillikda paxta ishlab chiqarish hajmi va iste’moli global ishlab chiqarishda 5% ga ortib, 2022–2023-yil yakunlari bo‘yicha esa 126,5 million toy (bale)ga yetgan. Shu bilan birga, 2031–2032-yillarga kelib taxminan paxta ishlab chiqarish hajmi 1,3 %ga o‘sib, 141,3 million toy (bale)ga yetishi prognoz qilinmoqda”<sup>1</sup>. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kadrlar salohiyatini tizimli boshqarish klaster subyektlari o‘rtasida funksional hamkorlikni kuchaytiradi, mehnat unumdarligini oshiradi va barqaror iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Shu bois, agroklasterlar doirasida kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlari nafaqat klaster samaradorligi, balki uning global raqobatbardoshligini ta’minlashda ham hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Juhon miqyosida agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar, avvalo, inson kapitali sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalarni shakllantirish, agroiqtisodiy klasterlarda kadrlar ehtiyojini aniqlash, ta’lim-ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda kompetentsiya markazlarini tashkil etish hamda malaka va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olmoqda. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda raqamli boshqaruv platformalari orqali kadrlar salohiyatini monitoring qilish, tahlil etish va strategik boshqarish tizimlarini joriy etish masalalari tadqiqot markazlarining diqqat markazida turibdi. Kadrlar ta’limtarbiyasini innovatsion talablarga moslashtirish, ularning loyihibiy boshqaruv, agrotexnologiyalar va iqtisodiy tahlil sohalaridagi salohiyatini rivojlantirish ham dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan sanaladi. Bu orqali agroklaster subyektlari o‘rtasidagi institutsional aloqalarni mustahkamlash, mehnat unumdarligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiluvchi kadrlar siyosati shakllantiriladi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida qishloq xo‘jaligini, jumladan, agroklasterlar faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, sohada kadrlar raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, agroklaster mahsulotlarini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ‘ib qilish, agroklasterlar faoliyatining bozor tarmog‘idagi sohasi bo‘lmish strategik menejment va marketingni o‘z ichiga olgan boshqaruvning kreativ usullarini qo‘llash, sohada kadrlar salohiyatidan maqsadli foydalanish asosida ko‘p qiymatlari agroklaster mahsulotlari samarasini o‘zlashtirish

<sup>1</sup> [https://www.depts.ttu.edu/aaec/icac/pubs/cotton/global\\_cotton\\_baselines/Final\\_Baseline\\_Mar2022.pdf](https://www.depts.ttu.edu/aaec/icac/pubs/cotton/global_cotton_baselines/Final_Baseline_Mar2022.pdf)

kabi tadbirlar yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan “...qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish, agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash hamda dehqon va fermer xo'jaliklari hamda klasterlarga barcha subsidiyalarni yagona «Agrosubsidiya» platformasi orqali «bir qadam» tamoyili asosida taqdim etish”<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda agroklasterlar faoliyatini boshqarishda mavjud resurs komponentlardan maqsadli foydalanish, agroklasterlar faoliyatining hududiy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi faoliyat samaradorligini oshirish, sohada kadrlar raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish choralarini ko'rish bilan bog'liq mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son “Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonlari, 2024-yil 20-iyundagi PQ-227-son “Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2024-yil 28-iyuldaggi PQ-304-son “Qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-dekabrdagi 747-son “Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori hamda shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Agroklasterlar faoliyatini rivojlanirishning nazariy asoslari hamda kadrlar salohiyatini boshqarishning zamonaviy tizimini takomillashtirish masalalarini xorijiy mamlakatlarda M.Porter, I.Mazur, I.Shapiro, L.Muravskiy, S.Villiams, M.Dodgson, D.Gann, A.Salter, K.Donoxuye, E.Katok, S.Leider va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-soni «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

<sup>3</sup>Порттер М. Конкуренция / Майкл Э. Порттер; пер. с англ. – М.: Вильямс, 2006. – 256 с.; Мазур И.И., Шапиро В.Д. Управление качеством: учеб. пособие / Мазур И.И., Яснолоб И.А., Протсиук Н.Y. Organizational-economic mechanism of management of food industry enterprises competitiveness. Annals of agrarian science 14 (2016) 191-195.; Murawski, L. Gamification in human resource management—Status quo and quo vadis // German Journal of Human Resource Management. 2021. Том 35. № 3. С.: 337-355.; Williams, C.C. Beyond the formal/informal jobs divide: evaluating the prevalence of hybrid ‘under-declared’ employment in South-Eastern Europe // The International

Agroklasterlar faoliyatini boshqarish jarayonlari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari iqtisodchi olimlari qatoriga Ye.B.Falkovich, D.A.Kotlyarov, A.Chernyaev, D.Serdobinsev, O.A.Anichkina, O.A.Frolova, Ye.N.Kolomoyes, V.V.Travii, V.A.Dyatlov, I.I.Isachenko, N.R.Balinskaya, S.A.Shapiro, Ye.I.Lovchikova, Yu.O.Derevyanko, V.I.Truxachev va boshqalarini kiritish mumkin<sup>4</sup>.

O'zbekistonda agroklasterlar faoliyatini boshqarish jarayonlari bo'yicha A.Ortiqov, D.N.Saidova, I.B.Rustamova, I.Yu.Umarov, M.Karimov, Sh.A.Tursunov, M.Turg'unov, A.H.Berdiyev, G.Q.Abdurahmanova, Sh.A.Allayorov, B.O.Mo'minov, X.Urdushev, G.Q.Abdurahmanova, Sh.G.Gaibnazarov, N.T.Shoyusupova, S.Eshanqulov, M.Mavlyanov va boshqa olimlar ilmiy-tadqiqot olib borganlar<sup>5</sup>. Ammo agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar yetarlicha o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

---

Journal of Human Resource Management. 2010. Том 21. № 14. С.: 2529-2546.; Dodgson M., Gann D.M., Salter A. The Management of technological innovation: Strategy and Practice. New York: Oxford Univ. Press, 2008. 373 p.; Donohuye K., Katok E., Leider S. The handbook of behavioral operations. New York: John Wiley & Sons, Inc., 2019. 664 p. doi: 10.1002/9781119138341.

<sup>4</sup>Фалкович Е.Б., Котляров Д.А. Аграрный кластер как инновационное направление интеграции в АПК стран таможенного союза и Единого экономического пространства // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. 2014. № 1 (49). С. 340-346.; Черняев А., Сердобинцев Д. Организационно-экономический механизм формирования агропромышленных кластеров в Поволжье // АПК: экономика и управление. 2012. № 2. С. 3-9.; Аничкина О.А. Принципы формирования кластеров малого и среднего бизнеса в АПК // Проблемы современной экономики: материалы международной научной конференции. Челябинск, 2012.; Фролова О.А. Формирование и развитие кластеров в региональном АПК // Региональная экономика: теория и практика. 2011. № 36 (219). С. 38-43.; Коломоец Е. Н. Управление кадровым потенциалом организаций [электронный ресурс]. URL: <http://www.mail.ru/events/sfiro/articles/sec5/kolomoec.doc> (дата обращения 27.02.2016.); Травии В. В., Дятлов В. А. Основы кадрового менеджмента. М.: ИНФРА-М, 2009. 170 с.; Исаченко И. И. Управление человеческими ресурсами: учеб. пособие. М.: МГУП имени Ивана Федорова, 2013. 206 с.; Балынская Н.Р. Управление персоналом предприятия на основе механизмов стимулирования репродуктивного труда: монография. СПб.: Инфо-да, 2014. - 144 с.; Коломоец Е.Н. Управление кадровым потенциалом организаций [электронный ресурс].URL:<http://www.mail.ru/events/sfiro/articles/sec5/kolomoec.doc> (дата обращения 27.02.2016); Шапиро С.А. Основы управления персоналом в современных организациях: уникальный подход, обеспечивающий эффективную работу компаний. М.: ГроссМедиа, 2007. 248 с.

<sup>5</sup>Абдурахим Ортиков. «Саноат иқтисодиёти» (Дарслик). - Т.: ТДИУ, 2014 й. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамгармаси нашриёти. Тошкент 2014. 45-52 бет.; Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. «Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги». -Т.: Ўқув қўлланма. «Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Асосий кутубхонаси» босмахонаси нашриёти, 2016. 12-б.; Умаров И.Ю. “Озиқ-овқат саноатида тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш истиқболлари”. Монография. – Т.: Фан ва технологиялар, 2014. – 23 б.; Каримов М.А. “Озиқ-овқат саноати корхоналарида бошқарувнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш” / Монография. - Андижан: “STEP BY STEP PRINT” МЧЖ, 2021.- 100 б.; M.Turg'unov. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Andijon.: 2023. – 120 б.; A.X.Berdiyev. Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда кластер тизимининг истиқболлари. Иқтисодиёт ва молия. 2019.12(132). 19-21-бетлар.; G.Q. Abdurahmanova Impact of demographic processes on the labor market of Uzbekistan. International Journal of Recent Technology and Engineering 8 (3 S), 572-576.;Sh.A. Allayorov Features and ways to improve the current model of agricultural policy of Uzbekistan. International journal of research in social sciences 7 (4), 212-223.;Мўминов Б.О., Сапаров А.Б. Агрокластерларнинг жорий этилиши – ихтинослаштириш ва жойлаштиришнинг муҳим омилидир. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601. Volume: 1, ISSUE: 2.; G.Q.Abdurakhmanova, Sh.G.Gaibnazarov, N.T.Shoyusupova Creating a system of control over compliance with decent work principles of the Republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, pp. 6401-6408.; Урдушев К., Эшанкулов С., Мавлянов М. Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг иқтисодий салоҳиятини оширишда кластерлар ўрни //SCIENCE AND INNOVATIVE DEVELOPMENT. – 2021. – Т. 4. – №. 3. – С. 13-26.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agroklaster, dehqon va fermer xo‘jaliklarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda fanning ta’lim va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

agroklasterlar faoliyatini rivojlanishi va tarmoq korxonalari klasterlashuvining nazariy asoslarini o‘rganish;

agroklasterlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish xususiyatlari va faoliyatni rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarishning zamonaviy tizimini ilmiy tadqiq etish;

agroklasterlarda kadrlar salohiyatidan foydalanish va uning o‘zgarish tendensiyalarini tahlil qilish;

agroklasterlar faoliyatini boshqarishda kadrlar raqobatbardoshligini baholash;

raqamli iqtisodiyot sharoitida agroklasterlar faoliyatini rivojlantirish va boshqarish jarayonlarini modellashtirish va prognozlashtirish;

hududiy agroklaster korxonalarida innovatsion va kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish;

agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarishda ko‘p variantli ssenariylardan foydalanish istiqbollari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyati va uni boshqarish jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyati va boshqarish jarayonlari bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etidi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, sintez, taqqoslash, statistik tahlil, anketa so‘rovleri o‘tkazish va tahlil etish, SWOT-tahlil, ekspert baholash va ekonometrik modellashtirish kabi tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

agroklasterlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish jarayonining tasnifi milliy iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, mehnat bozorida ish haqini ta’riflash tizimi (10-15 foizlik ustamalar), hududiy bandlik va kasbiy tayyorlash dasturlari (malaka oshirish kurslari bilan qamrab olingan xodimlarning 75-80 foizi), tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimlari hamda davlat-xususiy sheriklik tamoyillarining integratsiyalashuvini ta’minalash asosida takomillashtirilgan;

agroklasterlar faoliyati raqobatbardoshligini boshqarishda sohada kadrlar salohiyatini baholash mezonlari asosida yuqori samarali ( $4,5 \leq K_{Sy} \leq 5$ ), o‘rtacha

samarali ( $3,5 \leq KSo \leq 4,4$ ), past samarali ( $2,6 \leq KSp \leq 3,4$ ) va samarasiz ( $1 \leq KSs \leq 2,5$ ) ko'rsatkichlarga guruhash orqali baholash aniqligini oshirish asoslangan;

agroklaster korxonalarida kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, qishloq xo'jaligi klaster korxonalari va kadrlar resurslari o'rtasida ta'sirchan o'zaro aloqalarni ta'minlovchi institutsional vositalar tarkibiga 1 xodimga to'g'ri keluvchi mehnat unumdorligini yiliga 8-10% oshirishdan iborat reguliyativ hamda rag'batlantiruvchi vositalar majmuining kiritilishi asoslangan;

agroklasterlarda band bo'lgan ishchilar soni, ularning o'rtacha ish staji, boshqaruv xarajatlari va mehnat unumdorligi hajmining o'zgarishi hisobiga agroklasterlar faoliyatidan olingan foyda hajmining 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tabiiy resurslar va agrosanoat majmuasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hududiy tizim konsentratsiyasi asosidagi agroklasterlar ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy tizimining tarkibi asoslangan;

agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kadrlar salohiyatini boshqarishga ta'sir etuvchi tarmoq tarkibidagi resurs komponentlar tahlili amalga oshirilgan va sohadagi o'zgarish tendensiyalari baholangan;

Andijon viloyati Shahrixon tumanidagi "Saxovat teks" MChJ paxta-to'qimachilik klasteri va Baliqchi tumanidagi "Tetratex" MCHJ paxta-to'qimachilik klasteri faoliyati va ushbu klasterlardagi kadrlar salohiyati baholangan;

agroklasterlar faoliyatining kadrlar salohiyatini boshqarish bo'yicha SWOT tahlili amalga oshirilgan va Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida agroklaster korxonalari orasida faoliyatni tashkil etish hamda kadrlar salohiyatini boshqarish yo'nalishidagi holatni o'rghanish bo'yicha ham anketa so'rvnomasi o'tkazilgan;

innovatsion iqtisodiy rivojlanish uchun agroklaster korxonalari kadrlarini kasbiy tayyorlash tizimini strategiyalash konsepsiysi taklif etilgan va amaliyotda foydalanish yo'llari asoslangan;

agroklaster korxonalarining asosiy biznes strategiyalarini kadrlar strategiyasi bilan muvofiqlashtirish matriksasi ishlab chiqilgan va uni amalga oshirish yo'llari dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishi davomida foydalanilgan ilmiy-nazariy ma'lumotlar va yetakchi iqtisodchi olimlarning agroklasterlar faoliyatini samarali tashkil etish va unda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy qarashlari tahlil qilinganligi, ma'lumotlar bazasi milliy va samarali faoliyat olib borayotgan korxonalarining ishonchli ma'lumotlariga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlariga asoslanganligi hamda natijalarni O'zto'qimachiliksanoat uyushmasi faoliyati tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati agrar sohada mahsulotlar ishlab chiqarishni klasterli yondashuv

asosida rivojlantirish, klaster siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishni va ularda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmiga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda, ushbu agrosanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini yana ham rivojlantirishda taklif etilayotgan mexanizmni o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish, agroklasterlarning integratsiyalashgan tarmoq va sohalarida o‘ziga xos boshqaru strategiyalarini joriy qilish, ularda kadrlar salohiyatini boshqarishning zamonaviy tizimini shakllantirish mumkinligi hamda bu tavsiyalardan oliv ta’lim tizimida “Menejment”, “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish” va “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

agroklasterlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish jarayonining tasnifi milliy iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, mehnat bozorida ish haqini tariflash tizimi (10-15 foizlik ustamalar), hududiy bandlik va kasbiy tayyorlash dasturlari (malaka oshirish kurslari bilan qamrab olingan xodimlarning 75-80 foizi), tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimlari hamda davlat-xususiy sheriklik tamoyillarining integratsiyalashuvini ta’minalash asosida takomillashtirilishi bo‘yicha ilmiy taklifi O‘zto‘qimachiliksanoat uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zto‘qimachiliksanoat uyushmasining 2025-yil 17-iyuldaggi 03/25-1738-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida agroklasterlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish tizimining samaradorligi darajasi 10-12 foizga ortgan;

agroklasterlar faoliyati raqobatbardoshligini boshqarishda sohada kadrlar salohiyatini baholash mezonlari asosida yuqori samarali ( $4,5 \leq K_{Sy} \leq 5$ ), o‘rtacha samarali ( $3,5 \leq K_{So} \leq 4,4$ ), past samarali ( $2,6 \leq K_{Sp} \leq 3,4$ ) va samarasiz ( $1 \leq K_{Ss} \leq 2,5$ ) ko‘rsatkichlarga guruhlash orqali baholash aniqligini oshirish taklifi O‘zto‘qimachiliksanoat uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zto‘qimachiliksanoat uyushmasining 2025-yil 17-iyuldaggi 03/25-1738-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida agroklasterlar faoliyati raqobatbardoshligini boshqarishda sohada kadrlar salohiyatini baholash mezonlarini 9 ta guruhga tartiblash asosida kadrlar salohiyatini aniqlash darajasi aniqligi 11-13 foizga ortgan;

agroklaster korxonalarida kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari, qishloq xo‘jaligi klaster korxonalari va kadrlar resurslari o‘rtasida ta’sirchan o‘zaro aloqalarni ta’minlovchi institutsional vositalar tarkibiga 1 xodimga to‘g‘ri keluvchi mehnat unumdarligini yiliga 8-10% oshirishdan iborat reguliyativ hamda rag‘batlantiruvchi vositalar majmuining kiritilishi taklifi O‘zto‘qimachiliksanoat uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zto‘qimachiliksanoat uyushmasining 2025-yil 17-iyuldaggi 03/25-1738-

sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyatga joriy etilishi agroklasterlar faoliyati va bu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda kadrlar salohiyatini boshqarish tizimini takomillashtirish va mahsulotlar sifatini yaxshilashda zamonaviy boshqaruv modellari va mexanizmlarini qo'llash samaradorligi ortga;

agroklasterlarda band bo'lgan ishchilar soni, ularning o'rtacha ish staji, boshqaruv xarajatlari va mehnat unumdoorligi hajmining o'zgarishi hisobiga agroklasterlar faoliyatidan olingan foyda hajmining 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zto'qimachiliksanoat uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zto'qimachiliksanoat uyushmasining 2025-yil 17-iyuldaggi 03/25-1738-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyatga joriy etilishi natijasida "Bek klaster" MChJ va "Saxovat teks" agroklasterlarida kelgusi davrda rivojlantirish strategiyalari asosida ssenariylar ishlab chiqish imkoniyati kengaydi hamda amaliyotda foydalanish mumkin bo'lgan qisqa muddatli davr uchun tarmoqning maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari ifodalangan 14 ta ilmiy ish, jumladan, ularning 6 tasi Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish jurnallarida aprobatsiyadan o'tkazilgan ishlardir.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Ularning 6 tasi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to'plamlarida, 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 3 tasi xorijiy, 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 138 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmeti shakllantirilgan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarishning ilmiy – nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida Agroklasterlar faoliyatini rivojlanishi va tarmoq korxonalari klasterlashuvining nazariy asoslari, agroklasterlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy tizimi xorijiy tajribalar asosida yoritilgan.

Mamlakat qishloq xo‘jaligining raqobatbardosh innovatsion iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida barqaror rivojlanishga erishish davlatning oziq-ovqat xavfsizligi va mustaqillagini ta’minalashga, qishloq aholisining hayot darjasini va sifatini yaxshilashga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ustuvor vazifasidir. Ushbu yo‘nalishda, qishloq xo‘jaligining barqarorligini ta’minalash, tarmoqlararo va hududiy integratsiyalashgan tuzilmalarni yaratish alohida ahamiyatga ega hisoblanib, ulardan biri agroklasterdir.

Jahon iqtisodiyotida klasterli yondashuv masalalari XX asrning 20-yillari oxiridan boshlab tobora rivojlnana boshlandi. Keyinchalik zamonaviy klasterlar – hududiy ishlab chiqarish majmualarini yaratish bilan iqtisodiy rayonlashtirishning nazariy asoslari yaratilib, sanoat markazlari kabi klasterlar davridan ham oldinda bo‘lgan noyob amaliy tajriba va bilimlar majmui shakllandi. Shunday qilib, 1927-yilda rus iqtisodchi olimlaridan biri, iqtisodiy geografi N.Kolosovskiy qishloq xo‘jaligini rivojlanirishga klaster yondashuvini qo‘llab-quvvatladi, shuningdek, davlat qishloq xo‘jaligini birlashtirish boshqa qishloq xo‘jaligi turlari bilan amalga oshirilishi va bundan keyin sanoat korxonalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash mumkinligini ta’kidladi<sup>6</sup>.

T.V.Sixan, “klaster – bu iqtisodiy faoliyatning eng samarali va o‘zaro bog‘liq turlarining konsentratsiyasi, ya’ni muvaffaqiyatli raqobatbardosh korxonalarning o‘zaro bog‘liq guruhlari to‘plamidir” – deb baholab, klasterlarning uchta keng bir-birini to‘ldiruvchi ta’rif mavjudligini ta’kidladi<sup>7</sup>:

1. Agroklasterlar – agroklasterlar faoliyati yuqori darajadagi tarmoqlar to‘plamidir.

2. Agroklasterlar – muayyan ilmiy muassasalar bilan bog‘langan tegishli tarmoqlar doirasidagi iqtisodiy faoliyatning hududiy cheklangan shakllaridir.

3. Agroklaster – vertikal usulda tashkil etilgan ishlab chiqarish zanjirlari, ishlab chiqarish jarayonining qo‘shni bosqichlari klasterning yadrosini tashkil etadigan tor belgilangan tarmoqlardir.

Fikrimizcha, agroklasterlar – bu mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni faollashtirishga qaratilgan qishloq xo‘jaligi korxonalarining hududiy assotsiativ birlashmasidir.

Zamonaviy jahon amaliyotida agroklasterlar faoliyati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Bu har bir ishtirokchi uchun kompleks integratsiya orqali sinergetik samara olish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish, “o‘sish nuqtalarini” aniqlash va barcha subyektlarning muvozanatli va barqaror rivojlanishini aks ettiradi.


Agroklasterlar ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy tizimi tarkibiy diagrammasi uchta asosiy - quyi tizimni hududiy agrosanoat, hududiy agronomik va ijtimoiy-iqtisodiy hududiy tizimni o‘z ichiga oladi (1-rasm).

Agroklasterlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish masalalari va muammolari xorijiy olimlar I.D.Turgel, Ye.N.Kolomoes, N.R.Balinskaya,

<sup>6</sup> Фалкович Е.Б., Котляров Д.А. Развитие агропромышленной интеграции в рамках таможенного союза // Современная экономика: проблемы и решения. 2013. № 12. С. 136-144.

<sup>7</sup> Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития // Теория и практика управления. 2003. № 5. С. 40.

N.V.Kuznesova, V.V.Travii, I.I.Isachenko va boshqalarning tadqiqotlarida keng o‘rganilgan<sup>8</sup>.



**1-rasm. Agroklasterlar ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy tizimining tarkibi<sup>9</sup>**

Agroklasterlarning kadrlar salohiyati – bu foyda olish uchun foydalilanadigan xodimlarning ko‘nikmalari va qobiliyatlarini tasniflab, boshqa tomondan, inson resurslari vaqtincha bo‘s sh yoki zaxira ish joylari bo‘lib, ularni rivojlantirish hamda o‘qitish natijasida mutaxassislar egallashi mumkin bo‘lgan sifat ko‘rsatkichidir.

<sup>8</sup> Тургель И. Д. Российский рынок труда: тенденции и угрозы развития в условиях экономического кризиса // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2010. № 1. С. 49-61.; Коломоец Е. Н. Управление кадровым потенциалом организации [электронный ресурс]. URL: <http://www.mail.ru/events/sfiro/articles/sec5/kolomoec.doc> (дата обращения 27.02.2016).; Балынская Н. Р., Кузнецова Н. В., Синицына О. Н. Показатели оценки кадрового потенциала предприятия // Вопросы управления. 2015. №2 (14). С. 127- 138.; Кузнецова Н. В., Синицына О. Н. Бренд, брендинг, бренд-менеджмент, к вопросу о роли в деятельности современной организации // Экономика и политика. 2014. №2 (3). С. 118-122.; Травии В. В., Дятлов В. А. Основы кадрового менеджмента. М.: ИНФРА-М, 2009. 170 с.; Исаченко И. И. Управление человеческими ресурсами: учеб. пособие. М.: МГУП имени Ивана Федорова, 2013. 206 с.

<sup>9</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Agroklasterlar faoliyatining kadrlar salohiyati – bu o‘z funksiyalarini bajarish va korxonalarning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan resurslar turlaridan biri sifatida xodimlarning umumlashtiruvchi (miqdoriy va sifat) xarakteristikasi bo‘lib, xodimlarning mavjud va potensial imkoniyatlari hamda muayyan vaqtida foydalanilishi mumkin bo‘lgan integral tizimdir.

### 1-jadval

#### **Agroklasterlar paxta tozalash va ip yigirish korxonalarida kadrlar salohiyatini boshqarish jarayonlarining asosiy xususiyatlari<sup>10</sup>**


Nº	Kadrlar salohiyatini boshqarishning quyi jarayonlari	Quyi jarayonlarning xususiyatlari
1	Kadrlarni rejalashtirish	Xodimlarni boshqarish sohasidagi agroklasterlar siyosati va strategiyasini aks ettiradi, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni ularning sifat ko‘rsatkichlari bilan birgalikda bevosita belgilaydi, xodimlarning kasbiy mansubligi, malakasi va malakasiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.
2	Xodimlarni qidirish va tanlash	Bu kadrlar siyosatining davomi va xodimlarni boshqarish tizimining asosiy quyi tizimlari bilan bog‘liq bo‘lgan xodimlarni boshqarish tizimining asosiy elementlaridan biridir.
3	Yangi xodimlarni moslashtirish	U xodimlarni qidirish va tanlash subprocessining davomi bo‘lib xizmat qiladi va yangi xodimning tashkilotga tezroq kirishini va kerakli ishlash darajasiga erishishni ta’minlash maqsadini ko‘zlaydi.
4	Ta’lim	U tanlash va moslashtirish jarayonlarining davomi bo‘lib, yangi xodimlar tomonidan zarur va qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va tashkiliy madaniyatning asosini tashkil etuvchi fundamental munosabatlarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlaydi.
5	Ishni tahlil qilish, mehnatni me’yorlash va ish faoliyatini baholash	Bu bo‘sh lavozimlarga nomzodlarga qo‘yiladigan talablar va mezonlarni aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va keyinchalik mehnat faoliyatini baholash asosida tashkilot xodimlarni tanlash samaradorligini baholashga imkon beradi.
6	Motivatsiya tizimi	Talablarga javob beradigan nomzodlarni jalg qilish va tashkilotda ishlaydigan eng yuqori malakali xodimlarni saqlab qolishga qaratilgan motivatsiya strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi.
7	Tashkiliy madaniyat	Xodimlarni izlash va tanlash mezonlarini belgilashda hisobga olinadigan tashkilotda qabul qilingan me’yorlar, qadriyatlar va an’alar.

Agroklasterlar – kadrlar salohiyati ko‘p qirrali toifadir, chunki unga ko‘plab omillar ta’sir qiladi, ularning roli turli davrlarda ham kuch, ham ta’sir davomiyligi va yo‘nalishi bo‘yicha farq qilishi mumkin. Menejment sohasida ushbu omillarni aniqlash, hisobga olish, tahlil qilish va ulardan foydalanish orqali tizimlashtirish (shu jumladan bilvosita boshqaruv va o‘z-o‘zini tashkil etish imkoniyatlari) agroklasterlarning kadrlar salohiyatini barqaror rivojlanishini ta’minlashning eng muhim vazifasidir.

Tahlil qilingan adabiyotlar va kadrlar salohiyatini boshqarish va rivojlantirish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishni hisobga olgan holda, kadrlar salohiyatini boshqarishning yanada to‘liq tizimini quyidagi tasnifiy xususiyatga ko‘ra ifodalash mumkin (2-rasm).

Agroklasterlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish tizimini shakllantirish bilan bog‘liq amaliy faoliyat taktik va strategik boshqaruvni o‘z ichiga oladi. Agroklasterlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish tizimining samaradorligi nafaqat mehnat unumdorligi darajasining ortishi, balki korxonaga sodiqlik va sadoqat darajasining ortishi bilan ham belgilanadi.

<sup>10</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



**2-rasm. Agroklasterlar paxta tozalash va ip yigirish korxonalarida kadrlar salohiyatini boshqarish jarayoni tasnifi<sup>11</sup>**

Agroklasterlarni rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarishning zamonaviy yo'nalişlarini ochib berishda rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Tadqiqot jarayonida AQSh, Yevropa mamlakatlari va Xitoy davlatlari tajribasiga asosan agroklasterlar faoliyatiga yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni jalb qilish, mamlakatlarning qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun turli boshqaruv usullaridan faol foydalanishlari kabi nazariy va amaliy jarayonlardan mamlakatimiz agroklasterlari faoliyatida foydalanish yaxshi samara berishi aniqlandi.

Dissertatsiya ishining «**Agroklasterlar faoliyatini rivojlanishining hozirgi xolati va ularda kadrlar salohiyatini boshqarish jarayonlariga omillar ta'sirini baholash**» deb nomlangan ikkinchi bobida agroklasterlarda kadrlar salohiyatidan foydalanish taxlili va uning o'zgarish tendensiyalari, agroklasterlar faoliyatini

<sup>11</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

rivojlantirish va boshqarishga ta'sir etuvchi omillar tahlili hamda agroklasterlar faoliyatini boshqarishda kadrlar raqobatbardoshligini baholash amalga oshirilgan.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sanoatining rivojlanishi uning tarkibidagi tuzilmalar faoliyati hamda qishloq xo'jaligi resurslari joylashgan hududlarni ham rivojlantirishga sezilarli darajada turtki bo'lmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi va uning tarkibiy tuzilmalarining rivojlanishi hamda qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan resurslar tarmoq tarkibidagi statistik ko'rsatkichlarni hajmini ortib borishida ham soha faoliyatini yildan-yilga rivoj topayotganligini kuzatish mumkin.

O'zbekistonda Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosidagi agroklasterlar faoliyati tahliliga ko'ra, sohaga ilm-fan, innovatsiya yutuqlari hamda ilg'or texnologiyalar joriy etilayotganligini statistik ma'lumotlardan ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, dinamik ko'rsatkichlarda o'rtacha agroklasterlarga biriktirilgan fermer xo'jaliklari soni 85% (2021-yilda 7861 ta, 2024-yilda 15600 ta), yaratilgan ish o'rinni 81% (2021-yil 9,3 ming ta, 2024-yil 25,3 ming ta), agroklasterlar soni 79% (2021-yilda 86 ta, 2024-yilda 245 ta), biriktirilgan yer maydoni 73% (2021-yilda 78,8 ming.ga, 2024-yilda 303 ming.ga), eksport hajmi 69% (2021-yilda 72 mln AQSh dollari, 2024-yilda 500 AQSh dollari), qayta ishslash quvvatlari 68% ga (2021-yilda 554 ming tonna, 2024-yilda 2950 ming tonna), jalb qilingan investisiyalar 65% (2022-yilda 128 mln AQSh dollari, 2024-yilda 205 mln AQSH dollari)ni tashkil qilgan (2-jadval).

## 2-jadval

### O'zbekistonda agroklasterlar faoliyati tahlili<sup>12</sup>

Yillar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	O'rtacha o'sish %
Biriktirilgan fermer xo'jaliklari soni	6042	6712	7851	9868	12350	15600	85 %
Yaratilgan ish o'rni (ming.nafar)	8,1	8,7	9,3	9,3	17,5	25,3	81 %
Klaster soni	68	75	86	146	163	245	79 %
Biriktirilgan yer maydoni (ming.ga)	60,6	67,4	78,8	113,5	197	303	73 %
Eksport hajmi (mln.\$)	58	67	72	75	250	500	69 %
Qayta ishslash quvvatlari (ming.tn)	413	489	554	841,8	1450	2950	68 %
Jalb qilingan investisiya (mln.\$)	-	-	-	128	155	205	65 %
Fermer xo'jaliklari yer maydoni (ming.ga)	-	-	-	87	110	185	60 %
Qayta ishslash bosqichlarini qamrab olish (%)	-	-	-	15	25	35	58 %

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar negizida agroklaster tizimidan samarali foydalanish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish orqali mamlakatimizdagи qishloq xo'jaligi sanoati korxonalarida qisqa muddat ichida klaster tizimini rivojlantirishning yangi innovatsion jihatlarini shakllantirish vazifasi ustuvorlik kasb etadi. Ayniqsa, yaratilayotgan yarim tayyor mahsulotlarni aynan shu yerning o'zida klaster tizimi orqali tayyor mahsulot holiga keltirib, uni jahon

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bozoriga raqobatbardosh ekologik toza mahsulot sifatida olib chiqish mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada yuksaltiradi.

### 3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida mavjud qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan agroklasterlar<sup>13</sup>

Nº	Klasterlar turlari	Soni
1	Paxta-to‘qimachilik klasterlari	134
2	G‘allachilik klasterlari	195
3	Meva-sabzavotchilik klasterlari	261
4	Sholichilik klasterlari	41
5	Dorivor o‘simpliklar klasterlari	8
6	Chorvachilik klasterlari	34
7	Qorako‘lchilikda klasterlari	46
8	Parrandachilik klasterlari	11
9	Baliqchilik klasterlari	38
10	Pillachilik klasterlari	76
<b>Jami</b>		<b>844</b>

Respublikamizda jami 844 ta klasterlarga 2200 000 ga. yer maydonlari biriktirib berilgan bo‘lib, shulardan paxta – to‘qimachilik sohasida 134-ta, g‘allachilikda 195-ta, meva-sabzavotchilikda 261-ta, sholichilik sohasida 41-ta va boshqa shu kabi sohalarda 213 ta agroklasterlar faoliyat ko‘rsatmoqda (3-jadval).

Andijon viloyatida paxtachilik agroklasterlarida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar soni va mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha 2022–2024-yillar oralig‘idagi tahlillarga asosan, viloyatda faoliyat olib borayotgan klasterlardagi xodimlari soni hamda ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra, 2024-yil yakunida 1672 kishi ishchi xodimlari bilan “Xan teks grup” MChJ klasteri 362,3 so‘m hisobida eng yuqori ko‘rsatkichni qayd qilgan.

### 4-jadval

#### Andijon viloyatida paxtachilik agroklasterlarida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar soni va mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha ma’lumot<sup>14</sup>

Nº	Klasterlar nomi	Xodimlar soni			Ishlab chiqarish hajmi (so‘m hisobida)		
		2022y.	2023y.	2024y.	2022y.	2023y.	2024y.
1.	“Sohib omad barakasi” MChJ	137	310	790	39,3	145,9	101,6
2.	“Best tekstil internatsional” MChJ	166	11	20	0,1	8,1	52,7
3.	“Xo‘jaobod fayz-m” MChJ	378	327	504	64,6	88,6	124,8
4.	“Sayyora favorasi” MChJ	478	336	405	73,2	160,0	110,1
5.	“Alyorteks” QK MChJ	350	350	375	48,6	132,8	176,2
6.	“Vodiyl sanoat faxri” MChJ	455	322	144	51,7	127,3	122,7
7.	“Marxamat tekstil” QK MChJ	426	284	343	46,1	98,4	85,3
8.	«Sayyora favorasi plyus» MChJ	2	270	238	0,0	29,8	112,2
9.	“Oltin mato teks” MChJ	128	792	795	0,8	17,4	81,6
10.	“Al-xakim” MChJ	-	-	-	0,0	0,0	0,0
11.	“Saxovat teks” MChJ	216	290	328	103,1	163,9	188,5
12.	“Tetra teks” MChJ	98	160	218	27,2	192,3	357,3
13.	“Xan teks grup” MChJ	488	648	1672	172,4	240,4	362,3

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>14</sup> Jadval ma’lumotlari agroklasterlar ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida mehnat salohiyati holatini tahlil qilish uchun mehnat salohiyatiining o‘rtacha soni, mehnat salohiyatining tarkibi, mehnat salohiyatining aylanmasi va xodimlarni mehnat unumdarligi holati kabi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Agroklaster korxonalarida kadrlar salohiyatini boshqarishga omillar ta’sirini qishloq xo‘jaligi sohasi bozoridagi o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish asosida olib borish maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda, dastlab agroklasterlar faoliyatining rivojlanish xususiyatlari, sohaning ishlab chiqarish korxonalarida kadrlar salohiyatini boshqarishni baholash hamda uning kuchli, zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar va xatarlarni aniqlashga yordam beruvchi SWOT tahlil amalga oshirildi va soha faoliyatini rejalashtirish va prognozlashtirish uchun zaruriy omillarni baholash imkoniyatlari kengaydi.

Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida agroklaster korxonalarini orasida faoliyatni tashkil etish hamda kadrlar salohiyatini boshqarish yo‘nalishidagi holatni o‘rganish bo‘yicha ham anketa so‘rovnomasi o‘tkazilib, agroklaster korxonalarida ish olib boruvchilarining mavjud shart-sharoit va faoliyat samaradorligiga bo‘lgan munosabatlari o‘rganildi.

### 5-jadval

#### **Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida agroklasterlar paxta tozalash va ip yigirish korxonalarini faoliyatni tashkil etish hamda kadrlar salohiyatini boshqarish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnama natijalari<sup>15</sup>**

№	So‘rovnomada ko‘rsatilgan masalalar	Respondentlar soni		
		Jami (60 nafar)	Shundan	
			Korxonalar (30 nafar)	Fermer xo‘jaliklari (30 nafar)
1.	Agroklaster korxonalarini kadrlar salohiyatini boshqarishda menejmentning qaysi usullarini qo‘llash maqsadga muvofiq?			
	tashkiliy-ma’muriy usullar	17	12	5
	iqtisodiy usullar	18	7	11
	sosial-ruhiy va intellektual trening usullari	25	11	14
2.	Agroklaster korxonalarini xarajatlarining asosiy qismini qaysi xarajatlar tashkil etadi?			
	ishlab chiqarish xarajatlari	26	14	12
	saqlash xarajatlari	21	11	10
	boshqarish xarajatlari	13	5	8
3.	Agroklaster korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari qaysilar?			
	imtiyozli kreditlashga subsidiyalar va lizing orqali moliyalashtirish tizimi zarurligi	31	14	17
	sug‘urta badallarini subsidiyalash	11	6	5
	aralash shaklda	18	10	8
4.	Agroklaster korxonalarida kadrlar salohiyatini boshqarish xarajatlarini qanday qilib minimallashtirish mumkin deb hisoblaysiz?			
	boshqaruv xodimlari sonini kamaytirish orqali	8	6	2
	agroklaster korxonalaridagi bo‘g‘inlarni kamaytirish orqali	14	8	6
	agroklaster korxonalarida kadrlar salohiyatini raqamli boshqaruv platformalarini joriy etish orqali	38	16	22

<sup>15</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

So'rovnoma da ishtirok etgan respondent (60 nafar) larning 28,3 % (17 nafar) i agroklastler korxonalarini kadrlar salohiyatini boshqarishda menejmentning tashkiliy-ma'muriy usullari qo'llash maqsadga muvofiqligini bildirib, ularning 30,0 % i (18 nafar) boshqaruvning iqtisodiy usullarini va qolgan 41,7 % i (25 nafar) esa sosialruhiy va intellektual trening usullari, ya'ni korxona xodimlari va ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi shaklda tashkil etish maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan (5-jadval).

Agroklastlerlar faoliyatni rivojlantirish va kadrlar salohiyatini boshqarish, shu bilan birga boshqaruv xarajatlarining shakllanishiga ta'sir etadigan omillar muhimlilik darajasi bo'yicha belgilab olish maqsadida Andijon, Namangan va Farg'onaviyoyatidagi agroklastlerlar va uning ishlab chiqarish faoliyatiga aloqador korxona va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari fikri asosidagi standart baholash usulidan foydalangan holda ekspert baholash shaklida o'rganib chiqildi.

Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda asosiy muammo ish beruvchilar va universitet bitiruvchilar o'rtaidagi manfaatlar to'qnashuvi yo'l qo'ymaslik, ish beruvchilar tomonidan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini olgan nazariy va amaliy bilimlarini, ularning salohiyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

Ushbu kadrlar salohiyatini baholash mezonlari orqali o'quv jarayoni va ta'lim sifatini oshirish darajasiga ta'sir ko'rsatishi, kadrlarda (talabalar) ta'lim olish jarayonida ish beruvchilarning talabiga javob bera olishga e'tibor qaratishi, kadrlar (talabalar) bugungi kunda mustaqil ta'lim olish imkoniyatidan to'liq foydalanishi va o'z ustida uzlusiz ishlashi orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi hisobga olingan.

Bunda:

$K_b$  - Kadrlar salohiyatini baholash

$K_{b1} = 4,5 \leq K_{Syu} \leq 5$  (yuqori samarali)

$K_{b2} = 3,5 \leq K_{So} \leq 4,4$  (o'rtacha samarali)

$K_{b3} = 2,6 \leq K_{Sp} \leq 3,4$  (past samarali)

$K_{b4} = 1 \leq K_{Ss} \leq 2,5$  (samarasiz)

Mazkur kadrlar salohiyatini baholash mezonlari agrar ta'lim muassasalari ta'lim jarayonining eng muhim jihatlariga e'tibor berish imkoniyatlari kengayadi. Ushbu kadrlar salohiyati baholash mezonlaridan yuqori samarali (4,5-5), o'rtacha samarali (3,5-4,4), past samarali (2,6-3,4), samarasiz (1-2,5) ko'rsatkichlar asosida oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarga ularning salohiyatini ish beruvchilar tomonidan yoki boshqa tashkilotlarning malakali mutaxassislarini jalb etgan holda aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu o'z navbatida, ta'lim muassasalarida talabalar o'z ustida ishlashi, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishi, shu bilan birga professor-o'qituvchilar ham kadrlar tayyorlash jarayonida ushbu baholash mezonlari asosida o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqishi talab etiladi. Shu bilan birga, talabalar o'qishni tugatgandan so'ng ish beruvchilar tomonidan ushbu baholash mezonlari asosida sinovlarini o'tkazishini bilgan holda tinimsiz mehnat qilishiga, sohani malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga hamda ta'lim sifatini oshishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**Agroklastlerlarni rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish va faoliyatni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida agroklastlerlar faoliyatini rivojlantirish va boshqarish jarayonlarini prognozlashtirish, hududiy agroklast korxonalarida innovatsion va

